

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.FIL.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**TURDALIYEV DILSHODJON OLIMJON O‘G‘LI**

**QAHRAMONLIK EPOSI USLUBIY XOSLANISHINING QIYOSIY  
TAHLILI (rus bilinalari va “Alpomish” o‘zbek xalq dostoni misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2024**

UO‘K: 398.22(=161.1)+398.22(=512.133)

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
philological sciences**

**Turdaliyev Dilshodjon Olimjon o‘g‘li**

Qahramonlik eposi uslubiy xoslanishining qiyosiy tahlili (rus bilinalari va  
“Alpomish” o‘zbek xalq dostoni misolida).....3

**Турдалиев Дилшоджон Олимжон угли**

Сравнительный анализ стилистического своеобразия героического эпоса (на  
материале русских былин и узбекского дастана “Алпамыш”).....25

**Turdaliev Dilshodjon Olimjon ugli**

Comparative analysis of the stylistic originality of the heroic epic (based on the  
material of Russian bylinas and Uzbek dastan “Alpamish”).....49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....54

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019.FIL.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**TURDALIYEV DILSHODJON OLIMJON O‘G‘LI**

**QAHRAMONLIK EPOSI USLUBIY XOSLANISHINING QIYOSIY  
TAHLILI (rus bilinalari va “Alpomish” o‘zbek xalq dostoni misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2024**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2991 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifasining (www.fdu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalining (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Muxiddinov Anvarjon Gofirovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponenlar:**

**Sodikov Zoxid Yakubjanovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Zolotova Tatyana Arkadyevna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Andijon davlat chet tillari instituti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "12" sentabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel.: (99873) 244-57-82; faks: (99873) 244-44-01; e-mail: fardu\_info@umail.uz)

369 Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (+99873) 244-44-02

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "18" avgust kuni tarqatildi.

(2024 yil "18" avgust dagi 15 raqamli reyestr bayonnomasi).



S.M. **S.M. Muminov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, f.f.d., professor

M.T. **M.T. Zokirov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash kotibi, f.f.n, professor

A.G. **A.G. Sabirdinov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, f.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon folklorshunosligida qahramonlik eposi hodisasini boshqa fanlar, xususan, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, antropologiya kabi fanlar tutashuvida o‘rganish asosiy metodologik tamoyil va amaliy vazifa sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Folklorning fanlararo aloqalarini aks ettiruvchi antroposentrizm tamoyili mifologik, tarixiy, qiyosiy kabi yangi ilmiy maktablarning paydo bo‘lishiga xizmat qilib, ular doirasida nazariy muammolar bilan bir qatorda, keng doiradagi amaliy masalalar ham tadqiq etilmoqda.

Jahon folklorshunosligida turli xalqlar og‘zaki ijodini qiyosiy o‘rganish orqali badiiy an‘analarning umumiy va milliy xususiyatlari zamiridagi umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganishga alohida e‘tibor beriladi. Folklorshunoslikning nazariy muammolari tadqiq etilib, ular yaxlit konsepsiyalar va ilmiy nazariyalarda o‘z ifodasini topmoqda. Hozirgi vaqtda folklorshunoslikning amaliy va nazariy yutuqlari uyg‘unligi talabiga aylanib borishi xalq og‘zaki ijodi muammolarini ilmiy tadqiq etishda yagona platformaning yaratilishi uchun ilmiy asos bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda folklor ijodi va xalq amaliy san‘atini qo‘llab-quvvatlash borasida tizimli tadbirlar amalga oshirilayotganligi o‘zbek milliy madaniyatini xorijda ommalashtirish bo‘yicha ilmiy, ijtimoiy-madaniy faoliyatning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanayotganligidan dalolat beradi. Jamiyatimiz milliy tiklanishdan milliy taraqqiyotga o‘tayotgan mamlakatimizda milliy qadriyatlarning mohiyatini chuqurroq anglash, xususan, xalq dostonlarida o‘z aksini topgan ezgu g‘oyalarni har tomonlama ro‘yobga chiqarishga asoslangan holda barkamol avlodni tarbiyalashda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xalqaro baxshichilik san‘ati festivalida “baxshichilik san‘atini milliy madaniyatning o‘ziga xos “tashrif qog‘ozi”ga aylantirish: baxshichilik sohasida shakllangan ijodiy maktablar, “ustoz–shogird” an‘analarini qayta tiklash va rivojlantirish, baxshi-shoirlar, folklorshunos olimlar, o‘qituvchi va mutaxassislarining ijodiy va ilmiy faoliyatini har tomonlama rag‘batlantirish”<sup>1</sup> lozimligi qayd etilgan. Badiiy adabiyot va xalq og‘zaki ijodiyotini o‘rganishga e‘tiborni kuchaytirish madaniy arxetiplar, ramziy kodlar va folklor asarlarining milliy ranglarini aks ettirish bilan bog‘liq muammolarni o‘rganishni taqozo etadi. Xususan, folklor tadqiqotlarining ko‘lamini kengaytirish, xalq dostonlarini qiyosiy tahlil qilishning zamonaviy usullarini yaratish, o‘zbek va xorijiy olimlar tomonidan epik asarlardagi umumbashariy va milliy mavzular, motivlar va obrazlarni aniqlash sohasiga kiritilgan bir qator qoidalarining muayyan matnlari materiallariga aniqlik kiritishni hisobga olgan holda yangi darajada izlanishlar olib borish taklif etilmoqda. Shu munosabat bilan o‘zbek va rus qahramonlik eposlarini o‘rganish, o‘zbek eposining tarkibida uslubiy, xususan, an‘anaviy formularni aniqlash milliy folklor va adabiyotshunoslik uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro baxshichilik san‘ati festivali ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. Kirish rejimi: <https://president.uz/uz/lists/view/2476> (murojaat qilingan sana: 22.03.2022-yil).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «Yangi O‘zbekistonni 2022-2026 yillarda rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-sonli “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-sonli “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 1-noyabrdagi PQ-3990-sonli “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi, 2019-yil 14-maydagi PQ-4320-sonli “Baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-apreldagi 304-sonli “Baxshichilik va dostonchilik san’atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon xalqlari qahramonlik eposining genezisi, uni qiyosiy o‘rganish masalalari G.M.Chedvik va N.K.Chedvik, S.Baura, K.Vays, F.Reglan, Y. de Friz, Sh.Otran, E.Miro, J.Dyumezil, R.Kerpenter, R.Levi, A.Lord, Sh.Boduen, K.Reyxl, O Ing Yong, V.Y.Propp, D.S.Lixachev, B.N.Putilov, V.M.Jirmunskiy, Y.M.Meletinskiy, N.I.Konrad, F.I.Urmanche<sup>2</sup> kabi xorijiy va rus olimlari tomonidan amalga oshirilgan.

---

<sup>2</sup> Chadwick K.M. and Chadwick M.K., *The Growth of Literature*, vol. I–III, London, Cambridge University Press, 1932-1940; Bowra C., *Heroic Poetry*, London, Macmillan, 1952; Wais K., *Frühe Epik Westeuropas und die Vorgeschichte des Nibelungenliedes*, Bd. 1, Tübingen, Walter de Gruyter, 1953; Raglan F.R.S., *The hero. A study in Tradition, myth and drama*, London, Watts & Co.1936; Vries J. de, *Das Marchen, besonders in seinem Verhältnis zu Heldensage und Mythos*, Helsinki, Suomalainen Tiedekatemia, – FFC, N 50, 1954; Autran Ch., *L’épopée indoue. Etude de l’arrière-fonds ethnographique et religieux*, Paris, Denoël, 1946; Metraux A., *Twin-heroes in South American mythology*, – JAF, vol.59, 1946, N 232, pp. 114-123; Dumezil G., *Les legendes sur les nartes*, Paris, Gallimard, 1965; Carpenter R., *Folk-tale, fiction and saga in the Homeric epics*, Berkley–Los Angeles, University Of California Press, 1946; Levy G. R., *The sword from the rock. An investigation into origins of epic literature*, London – New York, Greenwood Press, 1953; Lord A., *The singer of tales / ed. By Stephen Mitchell and Gregory Nagy*. – 2nd ed. Cambridge, MA; London, 2000; Baudouin Ch., *Le triomphe du heros. Etude psychoanalytique sur le mythe du heros et les grandes epopées*, Paris, Plon, 1952; Reichl K. *Turkic Oral Epic Poetry: Traditions, Forms, Poetic Structure*. Garland Publishing. New York-London, 1992; O Inkyon, “Алпомиш” ва “Жумонг” дostonларининг қиёсий-типологияк таҳлили. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2014; Пропп В. Я., *Русский героический эпос*, М.: Лабиринт, 1999; Лихачев Д. С., *Народное поэтическое творчество времени расцвета древнерусского раннефеодального государства X–XI вв. и в годы феодальной раздробленности Руси XII–XIII вв.*, – «Русское народное поэтическое творчество», т. 1, М.–Л.: изд-во АН СССР, 1953. – С. 141-216.; Путилов Б. Н., *Русский историко-песенный фольклор XII–XVI вв.*, М.–Л.: изд-во АН СССР, 1960; Жирмунский В.М., *Народный героический эпос. Сравнительно-исторические очерки*. – М.–Л.: ГИХЛ, 1962; Мелетинский Е.М., *Мифологический и сказочный эпос меланезийцев*, – «Океанийский сборник», М.: Наука, 1957. – С. 174-212.; Жирмунский В.М. *Тюркский героический эпос. Избранные труды*, Л.: Наука, 1974; Урманче, Ф.И. *Тюркский героический эпос*, Казань: ИЯЛИ, 2015; Мелетинский Е.М. *Происхождение героического эпоса. Ранние формы и архаические*

O‘zbek qahramonlik eposini o‘rganishga mamlakatimizning X.T.Zarifov, Sh.G.Turdimov, J.Eshonkul, K.Aimbetov, A.B.Bozorov, S.Nosirov. N.A.Raimova, B.M.Raxmonov, M.A.Rizayeva, S.Ro‘zimboyev, I.A.Sayitqulov, B.A.Egamqulov<sup>3</sup> kabi taniqli folklorshunos va adabiyotshunos olimlari katta hissa qo‘shdilar.

O‘zbek xalq dostonlarini o‘rganish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, “Alpomish” qahramonlik eposining rus bilinalari bilan o‘zaro qiyosiy tahlili amalga oshirilmagan. Bundan tashqari, o‘zbek qahramonlik eposining tarkibida an’anaviy formulalar, ularning xususiyatlari, doston syujeti poetikasidagi o‘rni va vazifalari o‘zbek adabiyotshunosligi va folklorshunosligida to‘liq o‘rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Jahon folklorshunosligining dolzarb muammolari” yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** jahon xalqlari eposlarining janr va uslub jihatidan rasmiylashtirishdagi o‘xshashlik va farqlarni rus bilinalari va “Alpomish” o‘zbek xalq dostoni materiallari asosida aniqlashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

an’anaviy folklor formulalarini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash, muammoni tadqiq etishdagi konseptual taqdidotlarda qabul qilingan terminologiyaga aniqlik kiritish;

Kiyev turkumidagi rus bilinalari va o‘zbek xalq dostonlarini kuylash san’atining umumiy va milliy xususiyatlarini aniqlash;

Kiyev turkumidagi rus bilinalari va “Alpomish” o‘zbek xalq dostonidagi qahramon bilan bog‘liq an’anaviy formulalarni qiyosiy tahlil qilish;

“Alpomish” o‘zbek xalq dostoni va rus bilinalarining aksiologik va odob-axloq tushunchalarining ahamiyatini ko‘rsatishdan iboratdir.

**Tadqiqot obyekti** sifatida kiyev turkumidagi rus bilinalari va “Alpomish” o‘zbek qahramonlik dostonining Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti tanlab olingan.

---

памятники. – М.: Изд-во Восточной литературы, 2004; Конрад, Н.И. Запад и Восток. / Н.И. Конрад. – М.: Наука, 1972; Жирмунский В.М., Народный героический эпос. Сравнительно-исторические очерки. – М.–Л.: ГИХЛ, 1962; Путилов Б. Н. Героический эпос и действительность. – Л.: Наука, 1988.

<sup>3</sup> Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – М.: ГИХЛ, 1947; Турдимов Ш. Ф., “Гўрўгли” дostonларининг генезиси ва тадрижий босқичлари - Тошкент: Фан, 2011; Эшонкул Ж. Фольклор: образ ва талкин; Қарши: Насаф, 1999; Аимбетов К. Каракалпақские народные сказители: Автореф. дис...д-ра филол. наук. – Ташкент, 1965; Бозоров А.В. Вопросы авторства и творческой индивидуальности бахши в узбекском народном дастанном сказительстве: Автореф. дис...канд. филол. наук. – Ташкент, 1991; Мирзаев Т. Искусство узбекских народных сказителей и особенности их эпического репертуара: Дис...д-ра филол. наук. – Ташкент, 1986; Мирзаев Т. «Алпомиш» дostonи, унинг версия ва вариантлари. // «Алпомиш» - ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси. – Ташкент: Фан, 1999; Носиров С. Творческое и исполнительское мастерство в узбекском народном творчестве: Автореф. дис...канд. филол. наук. – Ташкент, 1990; Раимова Н. А. Поэтическая система Хорезмских дастанов (на основе строфики, метрики и рифмы): Автореф. дисс...д-ра филос. по филол. наукам, Ташкент, 2020; Раҳмонов Б.М. Ўзбек халқ эпик шеър тузилиши: Филол. фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент: 1998; Ризаева М.А. Узбекские народные мифологические легенды (специфические особенности, классификация и система образов): Автореф. дисс...д-ра филос. по филол. наукам, Ташкент, 2020; Рўзимбоев С. Хоразм дostonларининг спецификаси, типологияси ва поэтикаси. Филол. фан. д-ри...дисс. – Тошкент, 1990; Сайиткулов И. А. Эволюция эпического сюжета и образа узбекской народной исторической прозы (на примере “Темурнома”): Автореф. дисс...д-ра филос. по филол. наукам. – Ташкент, 2020; Эгамқулов Б.А. Эпик шеър ва эпик синкретизм: Филол. фан. номз...дисс. автореф. – Самарқанд, 1994.

**Tadqiqot predmeti** rus bilinalari va “Alpomish” o‘zbek qahramonlik dostoni matnlarining tuzilishi, mazmuni hamda strukturasi va o‘xshashlik va farqlar, ularning poetik xususiyatlari va aksiologik ahamiyati hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritish uchun qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik va germenevtik usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

rus bilinalari hamda “Alpomish” o‘zbek xalq dostonining struktur-semantik xususiyatlari, epik syujetning asosini tashkil etuvchi arxetipik obraz, motiv va syujet chiziq-lari kabi asosiy birlik va tamoyillarni aniqlash hamda epik san’atning universal va o‘ziga xos xususiyatlarini anglashda qiyosiy tahlilni qo‘llashning maqsadga muvofiq-ligi asoslangan;

eposlarning janr hamda uslub xususiyatlariga yondashish epik asarning strukturasi va funksiyalaridagi qahramonlik yo‘li, mifologik birliklar, diniy marosimlar izomorfizmi hamda epik asarning shakli va mazmuniga ta’sir ko‘rsatadigan madaniy va milliy xususiyatlarda namoyon bo‘luvchi qahramonlar haqidagi tasavvurlar, ularning motivatsiyasi va qadriyat tamoyillaridagi farqlar alomorfizmini aniqlash imkoniyati dalillangan;

rus bilinalarining muhim elementlari sifatida qayd etilgan *ziyofat, fotiha, ot egarlash, olishuv* va “*er o‘z xotini-ni to‘yida*” sahnasi kabi an’anaviy formulalar eposning strukturasi va mazmunini shakllantiruvchi umumiy mavzu va motivlarni ajratuvchi universalialiklar sifatida tavsiflanib, ularning turli xalqlar epik an’analariga, jumladan, “Alpomish” o‘zbek xalq dostoniga ham xosligi hamda epos kuy-lash an’analari ta’sirida o‘zgarishi isbotlangan;

bilinalar va dostonlarning oliy (*vatanparvarlik*) va instrumental (*ozodlik, tinchliksevarlik, do‘stlik, mehnat va oilaviy qadriyatlar*) aksiologik munosabatlari mazkur epik an’analarni birlashtiruvchi va ularning o‘ziga xos madaniy kontekstlarini aks ettiruvchi axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar epos kuylovchi va tinglovchi uchun ahamiyatliligi, o‘zbek va rus xalqlarining tarixiy va madaniy qadriyat-lari bilan bog‘liqligi, ma’naviy tajribasining muhim tarkibiy qismi sifatida aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

o‘zbek va rus qahramonlik eposining janr-uslub tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlar tahlil qilindi;

qahramonlik epik qo‘shiqlarini o‘rganish jarayonida qiyosiy-tarixiy usulning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi haqida xulosa chiqarildi;

rus va o‘zbek xalqlari qahramonlik eposining uslubiy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilindi, bu xalqlarning dostonchilik an’analari ko‘rsatildi;

qahramonlik eposi syujetlari va strukturasi shakllantirishda odob-axloq qadriyatlar tizimining ahamiyati aniqlandi;

MDH mamlakatlari aholisining keng qatlamlari orasida folklorning, xususan, qahramonlik eposining ahamiyati yuzasidan ijtimoiy so‘rov o‘tkazildi va uning natijalari tahlil qilindi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** obyektiv yondashuvlar, usullar va nazariy izlanishlardan foydalanilganligi; matn tahlilining qiyosiy-tarixiy, aksiologik, statistik va etnofolkloristik usullari natijasida olingan analitik xulosalar keltirilganligi; o‘zbek va rus xalqlari eposlarining syujetlari, strukturasi va uslubini chuqur va puxta o‘rganishga asoslangan taklif va tavsiyalarning eposlarni o‘rganish amaliyotiga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati an’anaviy formulalarning rus va o‘zbek qahramonlik eposining tarkibidagi vazifalarini aniqlash va shu asosda milliy eposning janr-uslub jihatdan o‘ziga xosligini aniqlashga urinish amalga oshirilganligi bilan belgilanadi.

Ilmiy ishning amaliy ahamiyati shundaki, uning asosiy natijalaridan ilmiy-tadqiqot faoliyatida, xususan, qardosh bo‘lmagan til oilalariga mansub xalqlarning qahramonlik eposlarini qiyosiy tahlil qilish jarayonida foydalanish; umumta’lim muassasalari va oliy ta’lim muassasalari uchun har xil turdagi lug‘atlar va ma’lumotnomalar, shuningdek, o‘quv dasturlari, o‘quv qo‘llanmalar va darsliklarning tegishli bo‘limlarini tuzishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Qahramonlik eposini qiyosiy o‘rganishning nazariy xulosalari va amaliy natijalaridan quyidagicha foydalanildi:

rus bilinalari hamda “Alpomish” o‘zbek xalq dostonining struktur-semantik xususiyatlari, epik syujetning asosini tashkil etuvchi arxetipik obraz, motiv va syujet chiziqdari kabi asosiy birlik va tamoyillarni aniqlash hamda epik san’atning universal va o‘ziga xos xususiyatlarini anglashda qiyosiy tahlilni qo‘llashning maqsadga muvofiqligi haqidagi xulosalardan 2020-2022-yillarga mo‘ljallangan №12.35.56-b12 “Abdulla Qahhorning adabiyotshunosligi” fundamental loyihada foydalanilgan (Artvin Chorux universitetining (Turkiya) 2023-yil 4-oktabrdagi YE.2335-son ma’lumotnomasi). Natijada loyihaning ilmiy-nazariy ahamiyati ortgan;

rus bilinalarining muhim elementlari sifatida qayd etilgan *ziyofat, fотиha, ot egarlash, olishuv* va “*er o‘z xotinining to‘yida*” sahnasi kabi an’anaviy formulalar eposning strukturasi va mazmunini shakllantiruvchi umumiy mavzu va motivlarni ajratuvchi universalliklar sifatida tavsiflanib, ularning turli xalqlar epik an’analariga, jumladan, “Alpomish” o‘zbek xalq dostoniga ham xosligi hamda epos kuydash an’analarini ta’sirida o‘zgarishiga oid xulosalardan 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan №F3-201912258 “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” amaliy loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 24-maydagi 04/1-1018-son ma’lumotnomasi). Natijada loyihaning ilmiy-amaliy ahamiyati ortgan;

bilinalar va dostonlarning oliy (*vatanparvarlik*) va instrumental (*ozodlik, tinchliksevarlik, do‘stlik, mehnat va oilaviy qadriyatlar*) aksiologik munosabatlari mazkur epik an’analarni birlashtiruvchi va ularning o‘ziga xos madaniy kontekstlarini aks ettiruvchi axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar epos kuylovchi va tinglovchi uchun ahamiyatligi, o‘zbek va rus xalqlarining tarixiy va madaniy qadriyatlari bilan bog‘liqligi, ma’naviy tajribasining muhim tarkibiy qismi ekanligi haqidagi xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Farg‘ona” telekanalining “Xayrli kun” ko‘rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan

(O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Farg‘ona” telekanalining 2022-yil 23-dekabrda 317-son ma’lumotnomasi). Natijada xalq og‘zaki ijodining boy an’alarini teletomoshabinlar o‘rtasida keng targ‘ib qilish va ko‘rsatuvlarni ilmiy dalillar bilan asoslashga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari asosida 10 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan jurnallarda 6 ta, shundan xorijiy jurnallarda 3 ta maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 170 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmeti belgilab olingan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qahramonlik eposi asarlarini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida qahramonlik eposini xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos shakli sifatida o‘rganishning konseptual asoslari ko‘rib chiqilgan. **“Qahramonlik eposini o‘rganishning konseptual asoslari”** deb nomlangan birinchi faslda epik janrning genezisi, shakllanishi va ko‘p asrlik taraqqiyotini o‘rganish masalasi tizimli ravishda tadqiq qilingan.

Qahramonlik eposini o‘rganish muammolarini izchil yoritib borish uchun, avvalo, uning genezisi masalasini ko‘rib chiqish zarur. Bugungi kunda qahramonlik eposining kelib chiqish muammosini o‘rganishning tarixiy, mifologik va qiyosiy-tarixiy maktablar mavjudligi, tarixiy maktab vakillari (G.M.Chedvik, N.K. Chedvik, S.Baura<sup>4</sup>) o‘ziga xos “sodda realizm” bilan ishlab, epik badiiy umumlashmalarning individual xususiyatlarini e’tibordan chetda qoldiradigan, qahramonlik eposi – bu afsonaning boshlang‘ich shakli va aksincha emas, degan munozarali g‘oyani ilgari surayotgan bo‘lsa, neomifologlar (F.Reglan, Y.de Friz, Sh.Otran, E.Miro, J.Dyumezil, R.Kerpenter va G.R.Levi<sup>5</sup>) epik san’atning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ramziy

---

<sup>4</sup> Chadwick K. M. and Chadwick M. K., The Growth of Literature, vol. I–III, London, Cambridge University Press, 1932-1940. – 806 p.; Bowra C., Heroic Poetry, London, Macmillan, 1952. – 590 p.

<sup>5</sup> Raglan F.R.S., The hero. A study in Tradition, myth and drama, London, Watts & Co.1936. – 312 p.; Vries J. de, Das Marchen, besonders in seinem Verhältnis zu Heldensage und Mythos, Helsinki, Suomalainen Tiedeakatemia, – FFC, N 50, 1954. – 184 p.; Autran Ch., L’épopée indoue. Etude de l’arrière-fonds ethnographique et religieux, Paris, Denoël, 1946. – 408 p.; Metraux A., Twin-heroes in South American mythology, – JAF, vol.59, 1946, N 232, pp. 114-123; Dumezil G., Les légendes sur les nartes, Paris, Gallimard, 1965. – 264 p.; Carpenter R., Folk-tale, fiction and saga in the Homeric epics, Berkley–Los Angeles, University Of California Press, 1946. – 208 p.; Levy G. R., The

talqinini taklif etadilar. Ular eposning ramziyligini mifologik tarkibiy manba sifatida qabul qilib, “ong osti” sohasi kabi diniy yoki psixologik jihatlar bilan bog‘lashga moyildirlar.

Epik umumlashmalar haqidagi fikrimizni olim Sh.G‘.Turdimovning “Alpomish – buyuk sarkaralarning ramziy obrazidir”<sup>6</sup> degan xulosasi tasdiqlaydi.

Rus olimlari V.M.Jirmunskiy va V.Y.Proppllar umumiy nazariy jihatdan juda ajoyib xulosaga kelganlar. Ikkala tadqiqotchi ham eposning genezis muammosini tarixiy-tipologik qiyosiy uslubiyatga tayanib tahlil qilganlar. Ular qahramonlik eposi genezisining asosiy qonuniyatlarini aniqlash uchun ijtimoiy rivojlanishning turli bosqichlarida qardosh va qardosh bo‘lmagan xalqlarning ijodini taqqoslaganlar. Olimlarning fikricha, Sibir xalqlarining qahramonlik poemalari eng qadimgi davrlar eposining bevosita va eng yaqin vorislaridir.

Eposning kelib chiqishi va shakllanishi muammosining ochilishi tadqiqotchilar V.Y.Propp va V.M.Jirmunskiy tomonidan arxaik qahramonlik eposini umumiy nazariy ma’noda o‘rganishga asos bo‘ldi. Asosan, bu eng qadimiy epik mavzular va syujetlarga: qahramonning so‘vchi qo‘yishi, mahluqlarga qarshi kurash, bahodirning tarjimai holi elementlariga tegishlidir.

Bunga yuqorida aytib o‘tilgan olim Sh.G‘.Turdimovning “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari” asari misol bo‘la oladi. Asarda olim eposdagi (xususan, Go‘ro‘g‘li turkumidagi dostonlardagi) asosiy motivlar, bahodirlikning talqini, asosiy obrazlar va ularning dostondagi o‘rni, dostonning mifologiya va taqvim-marosim she’riyati bilan aloqasi mufassal tahlil qilgan.<sup>7</sup>

Folklorshunos olim J.S.Eshonqulov “Folklor: obraz va talqin” asarida o‘zbek dostonlaridagi mifologik tarkibiy qismlarga e’tibor qaratadi. Xususan, uning ta’kidlashicha, “O‘zbek folklorida dev o‘zining tarixiy asosiga ko‘ra afsonalar bilan bog‘liq bo‘lgan ibtidoiy tushunchadir”.<sup>8</sup> Tadqiqotchining kitobi shunisi bilan diqqatga sazovorki, unda “Alpomish” o‘zbek dostonini “Qo‘rqut bobomning kitobi” o‘g‘uz dostoni bilan qiyosiy o‘rganishga oid qimmatli materiallar o‘rin olgan. Xususan, olim bu dostonlardagi uyqu va tutqunlik motivlarini qiyoslab, quyidagilarni ta’kidlaydi: “Alpomish va Bamsi Bayroqning uyqudan bosh ko‘tarmasligi [mastlik tufayli] va asirga tushishi bejiz emas, bu ularga taqdir tomonidan bitilgan bahodirlik yo‘lida navbatdagi sinovdir”.<sup>9</sup>

Eposni tahlil qilishda tarixiy yondashuv, bizning fikrimizcha, eng muvaffaqiyatli hisoblanadi, chunki u “qahramonlik eposini yuzaga keltirgan va uning rivojlanishini belgilab bergan tarixiy sharoitlarni aniqlashni”<sup>10</sup> nazarda tutadi.

---

sword from the rock. An investigation into origins of epic literature, London – New York, Greenwood Press, 1953. – 236 p.

<sup>6</sup> Турдимов Ш. Ф., Этнос ва эпос. ЎзРФА, Алишер Навоий номидаги тил ва адабиёт ин-ти. – Т.: О‘zbekiston, 2011. – Б. 27.

<sup>7</sup> Турдимов Ш. Ф. “Гўрўғли” дostonларининг генезиси ва тадрижий боскичлари. – Тошкент: Фан, 2011. – 240 б.

<sup>8</sup> Эшонқул Ж. Фольклор: образ ва талқин; Қарши: Насаф, 1999. – Б. 5.

<sup>9</sup> Эшонқул Ж. Фольклор: образ ва талқин; Қарши: Насаф, 1999. – Б. 120.

<sup>10</sup> Мелетинский Е.М. Происхождение героического эпоса: Ранние формы и архаические памятники / Е.М. Мелетинский. – 2-е изд., испр.– М.: Вост. лит., 2004. – С. 13.

Biz qahramonlik eposining haqiqiy ildizlari folklor rivojlanishining qadimgi qatlamlariga chuqur kirib boradi, deb ishonamiz. Fikrimizcha, epik janrning haqiqiy asosi sulolaviy xronikalar, maqtovlar yoki diniy afsonalar emas, balki sinfiy jamiyat paydo bo'lishidan oldingi davrlardagi xalq eposidir. Qahramonlik eposiga alohida joziba baxsh etuvchi o'ziga xos epik uyg'unlik syujet elementlarining saqlanib qolishi, ibtidoiy jamoa tuzumi folklor an'alariga asoslangan epik ideallarning shakllanishi bilan bog'liqdir.

**“Bilinashunoslik va dostonshunoslikning shakllanish va rivojlanish tarixi”** deb nomlangan ikkinchi faslda ko'plab tadqiqotchilarning qiziqish obyektiga aylangan chuqur o'ziga xos rus bilinalari va “Alpomish” o'zbek qahramonlik dostonini o'rganishning genezisi va rivojlanish davrlari ko'rsatilgan.

Faslda turli xil bilinashunoslik maktablari o'rganilib, har bir maktabning zaif va kuchli tomonlarini ko'rsatib o'tilgan.

O'zbek folklorshunosligidagi dostonshunoslik bo'limi rivojlanishi O'zbekistonda folklorshunoslik fanining rivojlanish bosqichlari bilan uzviy bog'liqdir.

XIX asr o'rtalaridan to hozirgi kungacha rus va o'zbek xalqining epik folklori rus va o'zbek tadqiqotchilarining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Ushbu tendentsiya, ayniqsa, MDH mamlakatlarining ilmiy muhiti hokimiyatning mafkuraviy diktaturasidan xalos bo'lgan o'tgan asrning 90-yillardan boshlab jadal rivojlanmoqda.

O'zbek tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlari dostonlarda haqiqiy va ideal tarix birlashtirilgan, umuminsoniy ijtimoiy-siyosiy voqealar talqin qilingan, xalqning axloqiy-falsafiy, diniy-estetik qarashlari ensiklopedik tarzda aks etgan degan xulosaga kelishimizga imkon beradi.

Dostonlardagi tarixiy voqelik xalq fantaziyasi asosida umumlashtirilgan obrazlarda ifodalanadi. Binobarin, ularda epik umumlashtirish ustunlik qiladi. Bunday umumlashtirish odamlarning ijtimoiy adolat haqidagi orzulari va ideallari bilan singib ketgan. Bu esa shuni anglatadiki, eposlarga xos bo'lgan epiklik, mahobatlilik kompozitsion va syujet qurilishi jihatidan murakkab voqealarni qamrab oladi. Bunday voqealar mazmunan qahramonlik xarakteriga ega bo'lib, xalq ongida qahramon obrazida mujassamlashadi.

**“An'anaviy formulalar qahramonlik eposining uslubiy xususiyati sifatida”** deb nomlangan uchinchi faslda folklor matnlariga nisbatan “an'anaviy formula” tushunchasining nazariy ta'rifi yoritib berilgan.

Ertak va dostonlarda an'anaviy formulalar yordamida qahramonlarning turli xarakterli sifatlari, tashqi ko'rinishi tasvirlanadi, ular epik folklorning ushbu sohalari syujeti va kompozitsion tuzilishi darajasida ham ko'zga tashlanadi.

Ta'kidlash joizki, hozirgi vaqtda eng ko'p qo'llanadigan “formula” atamasidan tashqari, tadqiqotchilar ko'pincha epik matnning bir xil elementlaridan boshqa terminologik belgilardan ham foydalanadi. Masalan, A.F.Gilferding “tipik joylar” atamasini ishlatgan, A.N.Veselovskiy va E.M.Meletinskiy “umumiy joy” tushunchasidan foydalangan, A.Lord “formulali ifoda” atamasini kiritgan, P. G. Bogatyrev “leytmotiv” atamasini qo'llagan, L.A.Astafyeva “atributiv tavsiflar”,

“o‘timli tipik tavsiflar”, o‘zbek folklorshunosi T.Mirzayev “syujetli model” atamasidan foydalanadi.

Hozirgi vaqtda an’anaviy formulalarni o‘rganish yo‘nalishidagi eng nufuzli ilmiy ishlardan biri N.Roshiyanuning mashhur tadqiqoti<sup>11</sup> bo‘lib qolmoqda.

Formulaviy xarakterdagi uslubiy stereotiplar (u yoki bu darajada) deb hisoblanishi mumkin bo‘lgan hodisalar doirasi juda keng. Formulalarni identifikatsiya qilish va aniqlash masalasi esa ochiqlicha qolmoqda. Uning yechimi umuman folklor uslubiga va xususan, janrga nisbatan formulalilik qanchalik keng tushunilishiga bog‘liq.

Tadqiqotda biz formulaning quyidagi ta’rifidan kelib chiqamiz: an’anaviy formulalar – asrlar davomida shakllangan epik poetikaning kompozitsion va stilistik usullaridir. Bu barqaror so‘z birikmalari, jumlar yoki folklor matnning yirik fragmentlaridan iborat bo‘lishi mumkin. Ular takrorlanuvchanlik xarakteriga ega. Jumladan, aynan bir formula xalq ijodiyotining alohida asarida bir necha marta takrorlanishi mumkin. Formulalarni epos motivlariga ko‘ra tasniflash mumkin (qahramonning mo‘jizaviy tug‘ilishi, uning g‘ayrioddiy go‘dakligi, turli xil sinovlar, dahshatli dushman bilan jang, kelin izlash va turmush qurish, sayohat qilish, ketish).

Dissertatsiyaning **“Qahramonlik eposi tarkibida an’anaviy formulalar va doston aytish xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida rus va o‘zbek xalqlari hikoya qilish an‘analarining o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, qahramonlik eposi tarkibidagi formulali shakllanishlar haqida so‘z yuritiladi. Ushbu bobning **“Rus xalqining doston aytish an‘analari”** deb nomlangan birinchi faslida rus xalqining epos kuylash an‘analari va bu an‘analarni avloddan-avlodga yetkazuvchi “skazitellar” (baxshi), ularning epik repertuari, epos kuylovchilarning turlari (ularning uchta asosiy turi haqida ta’kidlanadi. Birinchi tur – epos matnini asl holida saqlab qolgan kuylovchilarni o‘z ichiga oladi. Ikkinchi tur – eposning faqat umumiy syujetini o‘zlashtirgan, xarakterli qismlarni tanlab olgan va faqat eposning ayrim qismlarini o‘zgarturuvchi ijrochilardir. Uchinchi tur – improvizatorlarni qamrab olgan. Ular umumiy sxemani eslab qolib, doimiy matnni shakllantirmagan, lekin har safar syujetlar, motivlar, obrazlar va formulalar arsenalidan foydalanaib, uni o‘zgartiradi) va bilina kuylash maktablari (“Yelustafiev-Ryabininskiy maktabi”, “Zyabliy Nivlik Konon maktabi”, “Tolvuy va Povenets bilina kuylovchilari va Kosmozersk bilinalari an‘anasi”) haqida so‘z boradi.

Ba’zi mashhur ijrochilar, xususan, buyuk bilina kuylovchilar sulolasining asoschisi Trofim Grigoryevich Ryabinin va yozma adabiyot namunalardan ilhomlanib, bilina yaratish bilan shug‘ullangan yangi tipdagi ijrochi Marfa Semyonovna Krukova haqida ma’lumot berilgan.

Ushbu an‘ana XX asrning birinchi yarmida butkul yo‘qotilganligi ta’kidlanadi.

**“O‘zbek dostonchiligi va uning o‘ziga xos xususiyatlari” faslida** o‘zbek dostonchilik san’ati va u haqidagi tadqiqotlar sharhlanadi.

O‘zbek xalqining baxshichilik an‘analari bugungi kunda tirik va rivojlanib borayotganligi sababli, tadqiqotchilar o‘zbek dostonchiligi, uni o‘qitish metodikasi, baxshilarning turlari va baxshichilik maktablari to‘g‘risida ko‘plab materiallar

---

<sup>11</sup> Рошияну, Н. Традиционные формы сказки / Н. Рошияну. – М.: Наука, 1974. – 219 с.

to'pladilar. Ayniqsa, rus xalqining ertak an'analaridan farqli o'laroq, o'zbek xalqining bu an'ansi avloddan-avlodga bir oila ko'lamida emas, aksincha, qishloqlar bo'ylab sayohat qilgan o'zbek baxshilarining iqtidorli yoshlarni jalb qilishi, ularga doston kuylash sirlarini o'rgatishi va ularni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashi diqqatga sazovor. Rus xalqining epos kuylash an'analarida bo'lgani kabi, dostonchilik ham ma'lum maktablarga bo'linadi.

O'zbek dostonchilik an'ansi qadim zamonlardan beri uch yo'nalishda rivojlanib kelmoqda: 1) Bulung'ur, Qo'rg'on, Shahrisabz, Qamay, Narpay, Sherobod kabi maktablarni hamda janubiy Tojikiston o'zbeklarining dostonchilik maktabini birlashtirgan katta dostonchilik maktabi. Odatda, bitta baxshi do'mbira jo'rligida yopiq ovoz vositasida kuylaydi; 2) Xorazm maktabi. Dostonlar yakkaxon yoki juft bo'lib, ochiq ovozda, cholg'u asboblari orkestri (tor, dutor, g'ijjak, garmon, bulaman, qo'shmay, doira) jo'rligida ijro etiladi. Bu maktabda "xalfa" deb ataladigan ayol ijrochilar ham mavjud. 3. Farg'ona maktabi. Bugungi kunda bu maktab yo'qotilgan, ammo hikoyachilarning ochiq ovoz va dutordan foydalanganliklari haqida dalillar saqlanib qolgan.

Baxshilar o'zlari ikkita shartli turga bo'linadi 1. Ijodkor improvizator baxshilar. Ular, qoraqalpoq shoirlari kabi, ekspromt ustalardir. Ular nafaqat an'anaviy dostonlarni ijro etish, balki ularning yangi variantlarni yaratish va o'zlarining asarlarini yaratish qobiliyatiga ega. Bu nafaqat mavjud syujetlarga o'zgartirishlar kiritishni, balki an'anani chuqur tushunishni va yuqori ijodkorlikni talab qiladigan yangi asarlarni yaratishni ham o'z ichiga oladi.

2. Oddiy baxshilar. Ular, ijodkor improvizatorlardan farqli o'laroq, odatda dostonlarni ijro etishda an'anaviy va standart yondashuvga ega. Ular muhim o'zgarishlar yoki improvizatsiyalarni amalga oshirmasdan, belgilangan mavzular va uslublarga rioya qilishga moyildirlar. Ushbu yondashuv ham o'ziga xos ahamiyatga ega, chunki u eposning an'anaviy shakllari, uning mazmunini saqlash va uni avloddan-avlodga yetkazishga yordam beradi.

Faslda o'zbek xalqining Fazil Yo'ldosh o'g'li va Ergash Jumanbulbul o'g'li kabi ba'zi taniqli baxshilari haqida ma'lumot berilgan.

Agar ikki xalqning epos kuylash an'anasini taqqoslasak, ularda bir qator umumiy va o'ziga xos xususiyatlarni ko'rish mumkin.

1. Epos kuylash an'analarining "maktab xarakteri".
2. Baxshilarning ijro etish xususiyatlariga ko'ra turli bo'linishi.
3. Musiqa jo'rligida kuylash.
4. Rus epos kuylash an'analarining sulolaviy xususiyati va o'zbek baxshilarining shogird saralash odati.
5. Ikki an'anada ham ayol ijrochilarning mavjudligi.
6. Rus epos kuylash an'anasining yo'qotilganligi va bilinalar faqat maxsus to'plamlarda saqlanib qolganligi, o'zbek dostonchilik an'analari esa hali ham tirikligi.

**"Rus bilinalari va "Alpomish" o'zbek dostonidagi formulali shakllanishlar tahlili"** fasli bilinalar va "Alpomish" o'zbek dostonidagi formulalarni (*ziyofat, fotiha, ot egarlash, olishuv va "er o'z xotiniyig to'yida"* sahnasi) qiyosiy tahliliga bag'ishlangan.

Masalan, qahramonlik bellashuvi formulasi (loci communes) tavsiflarini tahlil qilganda, ularning yaqqol o'xshashliklari va farqlarini ko'rish mumkin. Avvalo, ular odatiy formulalarni o'z atrofida birlashtirishadi:

1. Qahramonning qiyofasini aks ettirish. Qahramonni tasvirlashda hikoyachilar giperboladan faol foydalanadilar. Maqsad: qahramon oddiy jangchi emas, balki bosqinchini yenga oladigan katta kuchga ega o'ta qudratli odam ekanligini ko'rsatish.

*“Заехал молодец во середочку,  
Начал он силушку охаживать:  
Куда махнет палицей, туда улица,  
Перемахнет – переулочек”<sup>12</sup>*

*“Tikilsam quriydi daryoning gumi,  
Na»ra tortsam qular qo'rg'onning timi,  
Buncha so'zni lof urmagin bema'ni,  
Otim Hakim, men ham Boysinning  
xoni”<sup>13</sup>*

2. Dushman qiyofasini aks ettirish. Giperbola qahramonning dushmanlarini ham chetlab o'tmaydi. Ular har doim ulkan va qudratli mavjudotlar sifatida tasvirlangan

*“Есть у нас поганое Идолище  
А росту две сажени печатных,  
В ширину сажень была печатная,  
А голове что лютое лоханище,  
Глазища что пивные чашища,  
А нос-от на рожке с локоть был”<sup>14</sup>*

*“Shomurti shoxalab har yoqqa ketgan,  
Uchida chichqonlar bolalab yotgan,  
Izdan tushgan pishak oltoyda yetgan,  
Munday qalmoq qo'lin bulg'ab  
keladi”<sup>15</sup>*

3. Olishuv natijasiga shubha/ishonchsizlikni ifodalash. Ushbu formula qutqu solib, raqiblar o'rtasidagi jang natijasiga qiziqish uyg'otadi.

*«Но не мог Добрыня Змею перебить.  
Хочет тут Добрыня от Змеи  
отстать, <...>  
Та Змея она кровью пошла.  
Стоял у Змеи он трои суточки,  
Не мог Добрыня крови переждать,  
Хотел Добрыня от крови  
отстать»<sup>16</sup>*

*“Kurashda quvvatin sarf qip yuradi,  
Yiqmoqqa quvvati bekning kelmadi.  
Ikkovi ham bir-biriga sir bermas,  
Bularning ishini xaloyiq bilmas,  
Ikkovi bir-birin hech parvoy qilmas”<sup>17</sup>*

4. Olishuv natijasini tavsiflash. Olishuvdan oldingi voqealarni ifodalash bilan taqqoslaganda, olishuvning o'zi va uning natijasi juda qisqacha tasvirlangan. Bir harakat bilan qahramon dushmani mag'lub etishga muvaffaq bo'ladi.

<sup>12</sup> Былины / сост., вступит. ст., подгот. текстов, коммент. Ф. М. Селиванова. – М.: Сов. Россия, 1988. – С. 143.

<sup>13</sup> Alpomish: O'zbek xalq qahramonlik dostoni / Aytuvchi F. Yo'ldosh o'g'li // yozib oluvchi M. Zarifov. – Toshkent.: Sharq, 2010. – B. 119.

<sup>14</sup> Былины / сост., вступит. ст., подгот. текстов, коммент. Ф. М. Селиванова. – М.: Сов. Россия, 1988. – С. 158.

<sup>15</sup> Alpomish: O'zbek xalq qahramonlik dostoni / Aytuvchi F. Yo'ldosh o'g'li // yozib oluvchi M. Zarifov. – Toshkent.: Sharq, 2010. – B.153.

<sup>16</sup> Былины / сост., вступит. ст., подгот. текстов, коммент. Ф. М. Селиванова. – М.: Сов. Россия, 1988. – С. 53.

<sup>17</sup> Alpomish: O'zbek xalq qahramonlik dostoni / Aytuvchi F. Yo'ldosh o'g'li // yozib oluvchi M. Zarifov. – Toshkent.: Sharq, 2010. – B. 157-159.

*“Он машет шалыгой подорожною  
По Тугариновой да по буйной голове.  
Покатилась голова с плеч, как  
пуговица,  
Свалилось трупье да на сыру  
землю”<sup>18</sup>*

*“Qorajonbek xasta ko‘nglin xushladi,  
Juppay qilib yoqasidan ushladi,  
Dustamon qip uni qoqib tashladi.  
Qo‘shquloqning shunday aqili  
shoshdi,  
Qumni qopib endi yerga yopishdi”<sup>19</sup>*

Shubhasiz, turli xalqlarning folklor an‘analari bir-biriga o‘xshash bo‘lsa-da, ayrim joylarda farqlar mavjuddir. Umumiy joylarni tasvirlash vositalari bir xil, ammo xalqlarning milliy-madaniy o‘ziga xosligi ko‘zga tashlanadi. Rus va o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi an‘anaviy formulalari, bizningcha, xilma-xillikdagi birlikning umuminsoniy tamoyilini ko‘rsatadi: bu xalqlar madaniyatida, butun insoniyat madaniyatida bo‘lgani kabi, har bir alohida o‘zaro bog‘lovchi milliy ranglar bilan jilolangan ma‘lum fundamental modellar mavjud.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Aksiologik moduslar rus bilinalari va o‘zbek dostonlarining tarkibiy qismlari sifatida”** deb nomlangan bo‘lib, unda epik tafakkurning qadriyat mazmunini tahlil qilish va uning epik folklorda aks etishi haqida so‘z boradi.

Bobning **“Bilina va dostonlarning aksiologik qoidalari”** faslida muallif **“Epik tafakkur uchun ezgulik nima?”** degan savolni beradi va unga **vatanparvarlik, ozodlik, tinchliksevarlik, do‘stlik, mehnat va oilaviy qadriyatlar** kabi yuksak qadriyat konstantalarini tahlil qilinib, izchillik bilan javob beriladi.

Bir tomondan, qadimgi davrning afsonaviy syujetlarini qayta talqin qiluvchi epos badiiy asar bo‘lsa, boshqa tomondan, bu syujetlarni tarixiy parchalar bilan **“bezatib”**, u yoki bu xalq hayotidagi o‘ziga xos voqeaga aylantiriladi. Albatta, unga tarixiy hujjat sifatida munosabatda bo‘lish mumkin emas, lekin shu bilan birga, epik tafakkurda **“tarixiy shaxslar”** mavjudligi tufayli olijanob hukmdorga xos adolatli, farovon jamiyat haqidagi ideallar paydo bo‘ladi.

Shu nuqtayi nazardan, eng avvalo, **vatanparvarlik** kabi qadriyat haqida gapirish o‘rinlidir. Eposning birinchi rus tadqiqotchilaridan biri O.F.Miller shu munosabat bilan qahramonlik kuchi **“unga ega bo‘lgan kishiga bevalar va yetimlarni va ularning boquvchisi bo‘lgan ona-yerni himoya qilish burchini yuklashi”<sup>20</sup>**ga e‘tibor bergan. Epik folklor qahramoni har doim Vatanni himoya qilish maqsadida harakat qiladi. Masalan, **“Ilya Murometsning birinchi qahramonliklari”** bilinasida bosh qahramon Kiyevga keladi va knyaz Vladimir bilan uchrashadi, ular o‘rtasida quyidagi so‘zlashuv bo‘lib o‘tadi:

*«Уж ты батюшка Владимир-князь!  
Тебе надо ль нас, принимаешь ли  
Сильных могучих богатырей,  
Тебе батюшке на почесть-хвалу,  
Твоему граду стольному на изберець,*

<sup>18</sup> Былины / сост., вступит. ст., подгот. текстов, коммент. Ф. М. Селиванова. – М.: Сов. Россия, 1988. – С. 214.

<sup>19</sup> Alpomish: O‘zbek xalq qahramonlik dostoni / Aytuvchi F. Yo‘ldosh o‘g‘li // yozib oluvchi M. Zarifov. – Toshkent.: Sharq, 2010. – B. 153.

<sup>20</sup> Миллер О.Ф. Илья Муромец и богатырство киевское: Сравнительно-критические наблюдения над славянским составом народного русского эпоса. Санкт-Петербург: Тип. Н.Н. Михайлова, 1869. – С. 803.

*А татаровьям на посеченье?»<sup>21</sup>.*

Shu ma'noda "Alpomish" dostonining xotimasi ham qiziqish uyg'otadi:

*"Shuytib o'z yurtini shunqor ko'ribdi,*

*Omon-eson munda elga kelibdi,*

*Gunohkorlar Hakimbekdan o'libdi.*

*Shunday qilib ko'rdi o'sgan shahrini,*

*O'zi qaytib olgan Barchin yorini,*

*Shuytib topgan murod-maqsadlarini,*

*Fozil shoir aytar bilganlarini"<sup>22</sup>*

Shu o'rinda, Alpomishning singlisi oq yo'l tilab aytgan so'zlarini, qahramonga bo'lingan xalqni birlashtirish vazifasini eslatishini aytib o'tish kerak.

Boshqacha qilib aytganda, milliy epos "Vatanni himoya qilish g'oyasi bilan yo'g'rilgan"<sup>23</sup>, va agar dostonidagi mo'jizaviylik motivini mifologik ibtido bilan izohlash mumkin bo'lsa, epos qahramonlarining Vatanni himoya qilish uchun harakatlari tarixiy zarurat ekanligi shubhasiz.

Shunday qilib, epik asarlar bizga insonning rohat-farog'at haqidagi, qabilasini, shahrini, davlatini hamisha qo'riqlab turadigan xalqning mard o'g'lonlari va adolatli podshosi haqidagi orzularini tasvirlaydi, bizga xalq idealini ko'rsatadi. Bu ideal bir vaqtning o'zida bilinalarga ham, "Alpomish" qahramonlik dostoniga ham xosdir.

Bobning **"Bilina va dostonlar qahramonlarining odob-axloq munosabatlari"** deb nomlangan ikkinchi faslida bilina va doston qahramonlarining hatti-harakatlari epik tafakkurning qadriyat yo'nalishlari talqin qilinadi.

Xalq tafakkurida bahodirning tug'ilishi va jamiyatda mavjudligi katta ahamiyatga ega, chunki:

– bahodir mo'jizaviy tarzda tug'iladi (qayta tug'iladi), barcha mo'jizalar esa oliy kuchlar faoliyatining natijasidir (rus bahodirining tug'ilishi va hayvonlar hukmdori Skimenning qo'rquvi<sup>24</sup>, o'zbek qahramoni Alpomishning mo'jizaviy tug'ilishi<sup>25</sup>);

– qahramon mo'jizaviy kuchga ega, harbiy demokratiya sharoitida esa jismoniy kuch har qanday odamning bebaho xislati sanaladi (rus va o'zbek baxshilari tomonidan qahramonlarning jismoniy kuchini tavsiflash<sup>26</sup>);

– bahodir vatanini, oilasini, sevgan yorini dushmandan himoya qilishga doim tayyor, darvoqe, sharoit tufayli ular doimo xavf ostida bo'ladi.

---

<sup>21</sup> Миллер О.Ф. Илья Муромец и богатырство киевское: Сравнительно-критические наблюдения над словесным составом народного русского эпоса. Санкт-Петербург: Тип. Н.Н. Михайлова, 1869. – С. 110-111.

<sup>22</sup> Alpomish: O'zbek xalq qahramonlik dostoni / Aytuvchi F. Yo'ldosh o'g'li // yozib oluvchi M. Zarifov. – Toshkent.: Sharq, 2010. – B. 391.

<sup>23</sup> Соколов Ю.М. Русский былинный эпос. (Проблема социального генезиса) // Литературный критик. 1937. – № 9. – С. 191.

<sup>24</sup> Былины / сост., вступит. ст., подгот. текстов, коммент. Ф. М. Селиванова. – М.: Сов. Россия, 1988. – С. 28.

<sup>25</sup> Alpomish: O'zbek xalq qahramonlik dostoni / Aytuvchi F. Yo'ldosh o'g'li // yozib oluvchi M. Zarifov. – Toshkent.: Sharq, 2010. – B. 13-14.

<sup>26</sup> Былины / сост., вступит. ст., подгот. текстов, коммент. Ф. М. Селиванова. – М.: Сов. Россия, 1988. – С. 130.; Alpomish: O'zbek xalq qahramonlik dostoni / Aytuvchi F. Yo'ldosh o'g'li // yozib oluvchi M. Zarifov. – Toshkent.: Sharq, 2010. – B. 284.

Masalan, biz Dobrinya qanday qilib xavfli daryoni kechib o'tganini, knyazning jiyani Zabava Putyatchina va boshqa odamlarni ozod qilish uchun hayotini xavf ostiga qo'ygan holda Ajdar bilan jang qilganini ko'ramiz. Nafaqat malikani, balki barcha odamlarni Ajdarning asirligidan ozod qilish bahodir uchun oliy maqsad bo'lib, bu yo'lda u o'lishga ham tayyordir.

